

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Nigmanova Umida Bahromovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti, dotsent

umidanigmanova992@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar Bo‘lajak o‘qituvchini kreativ – ijodiy raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashda ajdodlarimiz tomonidan e’tirof etilgan ahloqiy-tarbiyaviy ilmiy meroslarda vatanparvarlik tarbiyasi, uning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayoni, ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarning jamiyat hayoti ijtimoiy sohasi bilan o‘zaro aloqosiga tolluqli ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar, milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalari: oila, mahalla, jamoa (gurah yoka ish jamoasi), do‘stlar, tolerantlik, o‘zidan yoshi kattalarni hurmat bilan munosabatda bo‘lish orqali munosabatga kirishish kabi ijtimoiy hamkorlik g‘oyalarining pedagogik ta’sir vositalari yoritib o‘tilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: pedagogika, jamiyat, ijtimoiy-munosabat, ta’lim vositalari, shaxs, ta’lim, ma’rifat, tarbiya, ma’naviyat, ahloq, tarbiya, milliy ong, milliy tarbiya, barkamol avlod

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va fan tizimida olib borilayotgan islohotlarning tub zamirida ma’naviy yetuk, o‘z-o‘zini anglagan, ahloqiy tarbiyalangan, istedodli, kreativ fikrlovchi kelajak avlod kadrlarini tayyorlash eng dolzarb muammo sifatida ilgari surilmoqda. Jumaladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev[1] BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida so‘zlagan ma’ruzasida yosh-avlod ertangi kuni va kelajagi masalasiga to‘htalar ekan: shunday deb ta’kidlaydi, “mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib o‘rin egallashi va o‘z salohiyatini namoyon etishi bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”. O‘zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko‘rsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag‘ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab – quvvatlashga chaqiraman» - deb butun dunyo minbaridan turib bildirgan fikrlari jahon ommasida juda katta qiziqish bilan qabul qilindi[1].

Xususan, mamlakatimizda kelajak avlod kadrlarini tayyorlash hamda ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti[2] 2019 yil 19 mart kuni bo'lib o'tgan yig'ilishlarida ilgari surgan besh muhim tashabbuslari ham ma'anviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda oliy ta'lim mussasasining o'rnini va roli juda yuqori ekanligini ta'kidlab o'tish mumkin. Bizga ma'lumki, ushbu ilgari surilgan "beshta eng muhim tashabbusda ham yosh-avlodga bo'lgan ta'lab va etiborni kuchaytirish, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlik-savodxonlikni targ'ib qilishi, madaniyat, san'atga bo'lgan ijodini rivojlantirish xotin-qizlar bandligini ta'minlash[2]"ning ustuvor vazifalarni bajarish orqali davlatimiz kelajagi bo'lgan ertangi kuni uchun, yetuk, kelajak avlod yoshlarini ma'anviy barkamol bo'lib voyaga yetishlarida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida o'rin tutadi[2].

Bo'lajak o'qituvchini kreativ – ijodiy raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashda ajdodlarimiz tomonidan e'tirof etilgan ahloqiy-tarbiyaviy ilmiy meroslarda vatanparvarlik tarbiyasi, uning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayoni kabi vazifalar muhim o'rin tutadi. Xususan, ajdodlarimiz tomonidan bizgacha qoldirilgan vatanparvarlikni madh etuvchi qadimgi afsona, mif, asotir va rivoyatlari. Shuningdek, Tomaris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, kabi buyuk sarkardalarning azmu-shijoati, qobiliyati, jasorati va mahorati haqiqiy ibrat namunasidir deb takidlash mumkin[3].

Akademik R.X.Djuraev[4] talaba yoshlarning ta'lim – tarbiya jabhasida individual shaxsiy sifatlarini rivojlantirish jihatlari masalasiga to'xtalib shunday ifodalaydi, "ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, talabalarni ta'limga majburlash tarzida emas, balki har bir talabaning individual sifat xususiyatlari, ijodiy yondoshish, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarini maqsadga-muvafiq tarzda hisobga olgan holda tashkil etish, talaba har bir ishda namuna bo'lish, talab va ehtiyojlarni tushunish, qat'iy - intizomga rioya etish, ilmiy-nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash[4]" kabi eng muhim omil sifatida takidlab o'tgan.

Rus olimi G.Andreeva[5] shaxsning ijtimoiylashuvi hamda individual sifatlarini rivojlantirish masalalariga to'xtalar ekan: "ijtimoiylashuv jarayonida yoshlarning ularda ijtimoiy me'yorning milliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni sifatida, muayyan jarayonlarda ular shaxs sifatida shakllanish to'g'risida to'xtalib" bo'lib olim, talaba shaxsi o'zi-o'zini rivojlantirish kompetensiyalari uning jamiyat hayotida ijtimoiylashuviga ham katta ta'sir ko'rsatadi deb ifodalaydi[5].

I.Zimnyaya[7; 42-b.] tomondan olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy kompetensiyaning tuzulishini tahlil qilish asosida quyidagi beshta komponentlarni aniqlashtirib kiritilgan:


- ta'limda kompetensiyani amalga oshirishga tayyorlik;
- kompetensiyaviy yondashuvlarga oid bilimlar;

- kompetensiyani amalga oshirishga nisbatan ijtimoiy-ta'limiy munosabat;
- ta'lim jarayonida kompetensiyani amalga oshirish tajribasi;
- ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishni tartibga solish komponentlarini tahlil qilib o'tgan.

Respublikamiz olimlaridan N.Qosimova[8] tadqiqot ishida “shaxs ijtimoiylashuvida ibrat va ta'lim-tarbiya masalalariga to'xtalar ekan: ma'rifatparvar bobomiz Maxmudxo'ja Behbudiyning ota ona va farzond o'rtosidagi o'zaro hurmatli, oilada bola tarbiyasi, ta'lim-tarbiyada ota-onalarning ibratini alohida keltirib o'tgan” har qanday tarbiyaning maskani avvalo oliadir, shaxs oilada kamol topadi hamda ijtimoiylashadi shu jarayonda millat tadqiri va kelajagi uchun kurashadigan kelajak avlodni tarbiyalash masalsi ham muhim o'rin tutadi[8].

D.Ro'zieva[9] ilmiy tadqiqot ishida kelajak avlod kadalarni tayyorlash masalasiga to'xtalar ekan; “yosh – avlodning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan kamol topishi, o'z davrining sharqona odob, umuminsoniy qadriyatlar, demokratik tamoyillar asosida voyaga yetgan yetuk farzandlari, istiqloq ishining davomchilari bo'lib voyaga yetkazish har bir mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatning asosiy ustuvor vazifasidir” deb ifodalab o'tgani ham bejiz emas. Chunki kelajak avlodning ma'naviy yuksalishida bo'lajak o'qituvchilarning roli va o'rni juda yuqoridir[9].

Xususan, kishilik jamiyatida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarning jamiyat hayoti ijtimoiy sohasi bilan o'zaro aloqosiga tolluqli ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar, milliy o'zlikni anglash kompetensiyalari: oila, mahalla, jamoa (guruh yoki ish jamoasi), do'stlar, tolerantlik, o'zidan yoshi kattalarni hurmat bilan munosabatda bo'lish orqali munosabatga kirishish kabi ijtimoiy hamkorlik g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillari

Mintaqamizning olimlari tomonidan yaaratilgan buyuk ilmiy merosning jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi ilmiy asarlarning asl mohiyati ham hozirgi zamon talabalarining ma'naviy-ahloqiy kamolotida muhim o'rin tutadi. Chunki, barkamol avlodni ma'nan yetuk qilib tarbiyalash masalasi eng muhim ahloqiy omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, yuqoridagi bildirilgan tahlillar asosida, ularni to'ldirgan holda milliy o'zlikni anglashga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Milliy o'zlikni anglash – insonning jamiyat hayotida ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aql-zakovatining mahsuli, uning ijtimoiy, inson ruhiy faoliyati o'ziga xos dastur bo'lib, u ichki olamda ona Vatanga xurmat, milliy o'zlikni anglash, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida shakllanadi. Bu jarayonlar millatning o'z ozodligi uchun kurashida, o'z manfaatlarini ximoya etishida, taraqqiyotga intilishlarida namoyon bo'ladi. «Bu jarayonlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuch millatning o'zligini anglashi bo'lsa, uni uzluksiz ravishda energiya bilan ta'minlab turadigan asosiy manba- milliy ma'naviyatdir»[102].

Адабиётлар:

1. Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 23 сентябрдаги БМТ 75 сессиясидаги нулқи. 2017 й. 24 сентябрь сони
2. Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 19 мартдаги “Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича муҳим вазифалар” нутқи... 2020 й. 20 март
3. Бегматов А.. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. – Тошкент..: Шарқ, 2000 й. – 64-65 б.
4. Джураев Р.. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования.: Автореф. дис. ... док. пед. наук. – СПб.: 1995.г.
5. Андреева Г. Социальная психология.-М.: 1999 г.-373 с.
6. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентностного подхода в образовании .: авторская версия И.Зимняя. - М.: Издательство: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов 2004. - 37 с
7. Қосимова Н.Д. Ўсмирлар ижтимоийлашувида ибрат ижтимоий психологик хусусиятларини аҳамияти...дисс. Пис.ф.н.: -Т., 2010 й.-46 бет
8. Рўзиева Д. Олий таълим муассасаси талабаларида миллий ифтихор туйғусини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари: Дис. ... пед. фан. док. – Т., 2007. – 255 б.

9. Tursunboyevich, O. A. (2021). Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1888-1897.
10. Abduganiev O. Developing Student Civil Competency // *Eastern European Scientific Journal*. – 2019. – №. 1.
11. Abduganiyev O. Formation of legal training aimed at competitiveness in pupils of secondary schools // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. – 2019. – T. 9. – №. 7.